

**Do'stligimiz abadiy bo'lsin, navoiylik o'quvchilar!**

www.tongyulduzi.uz

# TONGYULDUZI

Vatan yagonadir,  
Vatan bittedir!


Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi


ISSN - 2010-6092

2010-yil  
17-may  
N:20  
(66769)

*O'ssa fazzand bazkamol,  
Kulib boqaz baxt-iqbol!*



NAVOIY  
viloyatiga bag'ishlangan  
**MAXSUS SON**



*Aziz  
bolajonlar!*

Gazetamizni muntazam kuzatib borayotgan bo'lsangiz, Xorazm, Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi tengdoshlaringiz hayoti, ularning o'qishdagi, sportdagi, adabiyot va san'at sohasidagi, jamoat ishlaridagi yutuqlari haqida hikoya qiluvchi maxsus sonlatimizni o'qigan bo'lsangiz kerak. Ularning ko'pchilikka manzuz bo'layotganini gazetxonlarimizdan bo'la-

yotgan qo'ng'it'oqlar, kelayotgan maktublaz mazmunidan ham bilsa bo'ladi. Aksariyat tengdoshlaringiz bizni o'z viloyatlariga taklif qilib, barcha jabhada erishayotgan yutuqlarini respublika miqyosida ommalash-tirishimizni so'rashyapti.


Bugun an'anamizga sodiq qolgan holda respublikamizning eng kenja va navqiton Navoiy viloyatiga birgalikda sayohatga o'tlanamiz.

Shu o'rinda viloyat haqida qisqacha ma'lumot berib o'tishni

lozim topdik.

Respublika-mizning markaziy qismida joy-lashgan Navoiy viloyati 1982-yilda Buxoro viloyati va qis-man Samarqand vi-loyati yerlaridan tashkil etildi. Maydoni 110,8 ming kv.km.

Viloyat tarkibida sakkizta tu-man, oltita shahar va sakkizta shaharcha bor.



Navoiy shahri – viloyatning ma'muriy markazi sanaladi. Shahariga buyuk mu-tafakkir, o'zbek klassik sho'iri Alisher Navoiy nomi berilgan.

Endi so'z navbatini navoiylik ustoz-laringiz, tengdosh-laringizga beramiz.



*Sazlavhaga e'tibor berdingizmi? Dazhaqiqat, mustaqillik yillarida jamiyat taraqqi-yotining barcha jabhalaridagi kabi ta'lim sohasidagi islohotlar ham bosqichma-bosqich amalga oshirilib, fazzandlarimiz zamon talablari darajasidagi istiqloq maktablarida tahsil olishmoqda.*



**Azim JUMAYEV**  
Navoiy viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi

Bu borada Navoiy viloyatimizda amalga oshirilgan ish-larni tahlil etganimizda, hukumatimiz rahnamoligidagi ta'limni takomillashtirishga qaratilgan ko'plab ijobiy ishlarining guvohi bo'lamiz. Jumladan, Navoiy viloyatida shu yillar davomida yangi quriladigan, kapital rekonstruksiya qilinadigan, kapital va joriy ta'mirlanadigan 344 ta maktablar mebel jihozlari bilan ta'minlanishi rejalashtirilgan edi. 2005-2009-yillarda 11 ta maktab yangi qurildi, 66 ta maktab kapital rekonstruksiya qilindi, 122 ta maktab kapital ta'mir-

landi, 83 ta maktab joriy ta'mirlandi va jami 271 ta umum-ta'lim maktablari kompyuter

maktabi yonida 12x24 o'lchamli sport zali qurilishi ishlari boshlangan.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan markazlashgan holda 34 ta umumta'lim maktab-lariga 174 233 854 so'mlik mebel – jihozlar va o'quv ko'rgazma qurollari yetkazib berildi.

Hozirda 969 427 291,5 so'mlik sinf xonalari va boshqa xonalar komplektlari yetkazib berilgan.

Viloyatimizdagi ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini za-

sehrli dunyosi» festivalining o'tkazilishi yaxshi bir an'anaga aylangan.

Joriy yilning aprel oyida Konimex tumanidagi 9-maktabda 8-sinf o'quvchilari o'rtasida «Intellektual olimpiada» o'tkazilib, 10 nafar g'olib o'quvchilar aniqlandi va ular boshqarmaning Diplomlari hamda qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandilar.

tasi orqali e'lon qilinadi va har bir turdagi topshiriqlarning javoblari bir oy davomida qabul qilinadi. Dastlab mazkur olimpiada ishtirokchilari soni 100 nafar atrofida bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 2000 nafardan oshdi. Har yili 20 nafargacha o'quvchilar g'oliblikni qo'lga kiritadilar va munosib tarzda moddiy va ma'naviy taqdirlanadilar.

2008-yilda Navoiy shahridagi 8-maktab o'quvchisi O'tayor Xoliqov hamda Karmana tumanidagi 5-maktab o'quvchisi Jasur Tohirov kimyo fanidan o'tkazilgan 42-Xalqaro olimpiadada qatnashib, bronza medalini qo'lga kiritishdi.

Joriy yilda bo'lib o'tgan 4-bosqich Respublika fan olimpiadasida viloyatimizdan 5 nafar o'quvchi faxrlari 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallab, viloyatimiz o'quvchilari umumjamoa hisobida respublikada 4-o'ringa loyiq topildilar.

Mustaqillik yillarida viloyatimizning ko'p ming sonli jonkuyar pedagoglari ta'lim-tarbiya sifatini yangi bosqichga ko'tarish yo'lida fidokorona mehnatlarini izchil davom ettiradilar. Bilimli, zukko, intiluvchan o'quvchilarimiz esa hukumatimiz tomonidan ko'rsatilgan g'amxo'rliklarga a'lo baholarni, namunali xulqlari bilan javob qaytarishga bel bog'lashgan.

## ISTIQLOL MAKTABLARI

texnikalari hamda sport anjomlari bilan ta'minlandi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiyasi borasidagi ishlarni kuchaytirish, yoshlarni muntazam sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish, yangi sport majmualarini qurish va jihozlash, ularni yuqori malakali ustoz va murabbiylar bilan ta'minlash ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Umid nihollari – 2012» sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida Navoiy shahrida kurashga ixtisoslashtirilgan sport inshootini qurish ishlariga qizg'in tayyorgarlik ko'rilayapti. Jumladan, Karmana tumanidagi 12-sonli umumta'lim maktabi yonida 12x24 o'lchamli sport zali qurilishi, Qiziltepa tumanidagi 21-sonli umumta'lim

mon talabi darajasida olib borayotgan 152 nafar fidoyi xodimlarimiz hukumatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lganliklarini faxr bilan e'tirof etishni istardim.

Viloyatimizdagi iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarni aniqlash, ularning qobiliyatini rivojlantirish va intellektini o'stirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda umumta'lim fanlari bo'yicha saralangan o'quvchilar uchun «Olimpiada zaxirasi maktab»larining faoliyat ko'rsatishi, 8-sinf o'quvchilari o'rtasida «Intellektual olimpiada»ning o'tkazilishi, 7-10-sinf o'quvchilari o'rtasida aniq va tabiiy fanlardan «Sirtqi fan olimpiadasini»ning o'tkazilishi, «Iqtidor va iste'dodning

Viloyatimiz

aholisi ko'pmillatli ekanligini inobatga olgan holda, ta'lim olti tilda olib boriladi.

Boshqarmamizning maxsus buyrug'i bilan har haftaning seshanba kuni – tahlillar kuni deb belgilangan. Boshqarma, tuman (shahar) XTB xodimlari va mutaxassislari shu kuni maktablarga borib, darslarni kuzatib, o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatadilar.

Viloyatning yana bir tajribasi yuqori natija berib kelmoqda. 2003-yildan boshlab viloyatda o'ziga xos ta'limiy tadbirlar qatorida aniq va tabiiy fanlardan 7-10-sinf o'quvchilari o'rtasida «Sirtqi fan olimpiadasini» o'tkazilib kelinmoqda. Uning shartlari o'quv yili davomida 4 turda viloyat o'quvchilarining «Istiqbol g'unchalari» gaze-



Konimex tumanidagi Mirzo Ulug'bek nomli 7-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Oliy Rasulova 2009-2010-o'quv yilida mazkur ko'rik-tanlovning viloyat bosqichida ishtirok etib, faxrli ikkinchi o'rinni egallab qaytganida hamkasblari, shogirdlarining quvonganlarini bir ko'rsangiz edi.

Oliy opa opaning mazkur bilim dargohi o'quvchilariga ona tili va adabiyot fanidan saboq berib kelayotganiga ham yigirma yildan oshibdi. Shuningdek, opa «Yosh

ijodkorlar» klubini ham boshqarib keladi.

Ustoz qanchalar tirishqoq, izlanuvchan bo'lsa, shogirdlari ham undan ibrat olib, yangilik sari intiladilar, turli ko'rik-tanlovlarda o'z bilim va salohiyatlarini sinab ko'radilar.

Oliy opa rahbarlik qilayotgan 8-«B» sinfining G.Shoniyozova, G.Ashirbekova, D.Usmonova, G.Dushanov, S.Ahmedova singari iqtidorli o'quvchilari ham

turli tanlovlarda qatnashib, maktablari sharafigini himoya qilib kelyaptilar. Sarvinoz Dushanova ana shunday iqtidorli qizlardan biri. U Xorazmda o'tkazilgan respublika miqyosidagi yosh ijodkorlarning «Nafosat» she'riyat tanlovida ishtirok etib, faxrli

o'rinni egallab qaytdi.

Bir so'z bilan aytganda, o'quvchilar «Shuhrat» medali sohibasi – 1-toifali o'qituvchi Oliy Rasulovaning shogirdlari, degan nomga munosib bo'lish uchun astoydil harakat qilishyapti.

Gazetaning har bir sonini kuzatib boraman. Navbatdagi maxsus son navoiylik o'quvchilarga bag'ishlanayotganini bilib quvondim.

Gazetaning keyingi sonlaridan birida surxondaryolik o'quvchilar hayoti va faoliyati keng yoritilishiga umid qilaman. Ushbu she'rinni esa navoiylik tengdoshlarimga sovg'a qilaman.



AZIZA

## «BUNYODKOR»CHILAR ISHGA SHAY



Mana, ta'til ham eshik qoqmoqda. Navoiylik yoshlarni foydali ishlarga jalb etish maqsadida «Bunyodkor» mehnat guruhlari tashkil etildi.

– Yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazib, bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlariga o'z hissasini qo'shish niyatidagi yoshlarimiz talaygina, – deydi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Navoiy viloyati bo'limi kengashi raisi o'rinbosari Akram Eshmatov. – Bundan tashqari, yuzlab talaba-yoshlar «Orlyonok», «Shaboda» kabi oromgohlarda dam olishi bilan birga, unumli mehnat qilishi uchun barcha qulayliklar yaratildi.

## SAN'AT – MO'JIZALAR OLAMI

«San'at qalbga axloqiy ta'sir o'tkazish quvvatiga ega bo'lib, shunda u yoshlarni tarbiyalash kuchiga ham ega bo'ladi», degan ekan faylasuflardan biri.

Bu fikrning nechog'li to'g'riligiga mehnat faoliyati davomida ko'p bor amin bo'lgan Qori Niyoziy nomidagi 16-umumta'lim maktabining tajribali ustozlari ko'plab tadbirlar, fan oyliklari o'tkazib, o'quvchilar qalbida o'z fanlariga mehr uyg'otishga intilishyapti.

Yaqinda yana bir ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi. Unda 1-9-sinf o'quvchilari orasidagi iqtidorli o'g'il-qizlar ishtirok etib, tasviriy san'at, chizmachilik, musiqa va mehnat ta'limi fanlari bo'yicha bellashdilar. Tadbirda ishtirok etgan tuman Xalq ta'limi bo'limi xodimlari Ismat Hasanov, Abduqodir Shamsiyev iqtidorlilar ichidan saralangan g'oliblarni san'at va ijodiga yuqori baho berishdi.

Tanlov g'oliblari maktab ma'muriyatining Diplomlari va esdalik sovg'alarini olib quvonishgan bo'lsa, uning tashkilotchilari – musiqa fani o'qituvchisi Yo.Sharipov hamda tasviriy san'at fani o'qituvchisi S.Jumayev TXXB tomonidan taqdim etilgan esdalik sovg'alarini qo'lga kiritib, mehnatlari samarasidan mamnun bo'lishdi.

Mo'tabar OMONOVA,  
jismaniy tarbiya fani  
o'qituvchisi



## KIM BO'LSAM EKAN?

Kasblar ko'pdir dunyoda  
Kim bo'lishni bilmayman.  
Orzuim ham juda mo'l,  
Har kun shuni o'ylayman.

Futbolchi bo'lsammikan,  
Yaxshi gollar uruvchi?  
Uchuvchi bo'lsammikan,  
Ko'kda parvoz qiluvchi?

Shifokorlik yaxshi kasb,  
El sog'lig'in o'ylagan.  
Hunarmandlik kasbidan,  
Bobolarim so'yagan.

Dadam deydi: «Shu o'g'lim,  
Huuquqshunos bo'ladi».  
O'qish, intilishimdan,  
Onam ko'ngli to'ladi.

Kim bo'lsam ham albatta,  
Xalqqa xizmat qilaman.  
Ota-onam duosin,  
Doim ustun bilaman.

Dilshodbek ISMOILOV,  
Surxondaryo viloyati,  
Qumqo'rg'on tumanidagi  
16-umumta'lim  
maktabining 5-«B» sinf  
o'quvchisi



*Bolani niholga qiyoslaymiz. To'g'ri parvarish har qanday niholni baquvrat daraxtga aylantirgani kabi to'g'ri tarbiya ham o'g'il-qizlarimizning barkamol voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimiz rahnamoligida navqiron avlodning jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, xususan, bolalar sportini rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e'tibor zamirida ham ana shu ezgu maqsad mujassam.*

o'smirlar sport maktablarida badiiy gimnastika mashg'ulotlari olib borilmoqda. Mazkur muassasalardagi sport zallari va mashg'ulot xonalari maxsus gilamlar, bulava, halqa, lenta, koptok kabi zarur inventarlar bilan to'liq ta'minlandi.

Viloyatimiz markazidagi 4-bolalar va o'smirlar sport maktabida ikki mingga yaqin qiz sportning 14 turi bilan shug'ullanmoqda. Ularning 875 nafari badiiy gimnastika to'garagining a'zolaridir. Zamon talablari darajasida jihozlangan ikkita sport zalida badiiy gimnastika mashg'ulotlarini yuksak saviyada o'tkazish

musobaqa tashkil etdik. Qizg'in va murosasiz kechgan bahslarda qizlarimizning mahorati va faolligini ko'rib, mamnun bo'ldik.

Badiiy gimnastikada bolalikdan mahorat sirlarini o'rganish talab qilinadi. Shuni inobatga olgan holda, shahar Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 11-maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasasida badiiy gimnastika to'garagini ochdik. To'garakda yosh murabbiya Shahnoza Umrzoqova yigirma nafar qizaloqqa ilk saboqlarni o'rgatmoqda. Mashg'ulot xonalari zarur sport anjomlari, jajji gimnastikachilarimiz esa maxsus liboslar bilan ta'minlangan.

Nafis harakat, betakror mashqlarni o'z-gacha mehr bilan bajarayotgan qizaloqlar kelgusida badiiy gimnastika bo'yicha nufuzli musobaqalarda peshqadamlik qilayotgan opalarining o'rini bosishiga ishonchimiz komil.

Bundan tashqari, shahrimizda qizlar uchun sport markazi tashkil etildi. Markazda o'n ming nafarga yaqin qiz voleybol, basketbol, milliy kurash, yengil atletika, badiiy va sport gimnastikasi bilan shug'ullanmoqda. Ularning 1 ming 265 nafari murabbiya Zamira Haqberdiyeva rahbarligida badiiy gimnastika mashg'ulotlarida qatnashayotir. So'nggi paytda sportning nafis turiga qizlar va ularning ota-onalari o'rtasida katta qiziqish paydo bo'layotganini, natijada badiiy gimnastikachilarimiz safi kengayib borayotganini mamnuniyat bilan ta'kidlaymiz.

Erishilayotgan muvaffaqiyatlar bilan birga, sohada hal etilishi zarur bo'lgan muammolar ham yo'q emas. Badiiy gimnastika bilan shug'ullanuvchilarni o'ziga xos liboslar bilan ta'minlash, yuqori saviyadagi musobaqalar tashkil etish uchun sport zallarini rekonstruksiya qilish va qayta qurish, malakali murabbiyalarni ko'paytirish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Yorqul UMAROV,  
O'ZA muxbiri (Internetdan olindi)

**Navoiylik tengdoshlaringiz orasida sportning mashaqqatli, matonatli yo'lini tanlaganlar ham talaygina. Ular chempion bo'libgina qolmay, sport ustasi nomiga ham erishayotganliklaridan faxrlanadilar.**



## DIDARNING SHARAFIGA HILPIRASIN

Didar Meyrbekov Navoiy shahridagi Nodira nomli 4-gimnaziyaning 6-«B» sinfidagi talabaga o'qiydi. Yoshligidan sportga mehr qo'ygan bolakay 5 yoshidan O'zbekiston Respublikasi Shinkiookushinkay karate markazi «Nurxas»ga qatnaydi. Murabbiyi Hasan Nazarov har bir mashg'ulotni alohida e'tibor bilan o'tadi. Yoshgina bo'la turib, Didarning bir qator belbog'lar va medallar egasi bo'lishi mehribon, kezi kelganda, talabchan, qattiqqo'l murabbiyning mehnatlari samarasidir. Jumladan, 2005-yilda O'zbekiston Respublikasi Shinkiookushinkay karate markazida o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan VII chempionatda 3-o'rinni qo'lga kiritib, bronza medali sohibi bo'ldi. 2006-yilda Angren shahrida o'tkazilgan VIII chempionatda 2-o'rin egallab, kumush medali bilan taqdirlandi. 2007-yilda bo'lib o'tgan IX chempionatda yana 3-o'ringa loyiq topilib, bronza medali sohibi bo'ldi. Shuningdek, to'q sariq, ko'k, sariq va yashil belbog'lar uchun o'tkazilgan turnirlarda munosib mashqlari (kata) bilan o'zini ko'rsata bildi.

2008-yildan sport turini biroz o'zgartirib, dzyudo kurashi bilan shug'ullana boshladi va oz fursatda musobaqalarda ishtirok etib, namunali o'rinlar egasi bo'ldi. Shahardagi 3-Bolalar va o'smirlar sport maktabida Navoiy shahridagi 50 yillik yubileyiga bag'ishlab o'tkazilgan sport musobaqalarida 1993-1995-yillarda g'ulgan yoshlar o'rtasida kurash bo'yicha bo'lgan musobaqada faxrli 3-o'rinni egalladi va bronza medali bilan taqdirlandi.

2009-yil ham yosh sportchi hayotida unutilmas iz qoldirdi. Kichik yoshdagi bolalar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan dzyudo kurashi bo'yicha viloyat birinchiligida 3-o'rinni egallagan uchun Navoiy viloyat madaniyat va sport ishlari boshqarmasi tomonidan Diplom bilan taqdirlandi. Yaqinda o'tkazilgan dzyudo kurashi musobaqasida faxrli 2-o'rinni egallab, kumush medali qo'lga kiritdi.

Kelajakda jahon sport maydonlari uzra umidli sportchimiz Didarbekning sharafiga ham yurtimiz bayrog'i g'olibona hilpirasa, ne ajab?!

O'g'ily TIRKASHEVA

## NAVOIYLIK SPORTCHI YOSHLAR



Yosh sportchilarimizning xalqaro miqyosdagi nufuzli musobaqalarda erishayotgan yutuqlaridan iftixor, g'urur hissini tuyamiz. Shu yilning fevral oyida poytaxtimizda bo'lib o'tgan badiiy gimnastika bo'yicha Osiyo chempionatida sportchi qizlarimiz iqtidor, mahorat va tajriba bobida hech kimdan kam emasligini namoyish etishdi. Bu mamlakatimizda sportning barcha turlari qatorida badiiy gimnastikani rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan salmoqli ishlarning yorqin samarasidir.

Navoiy shahrida o'n ming nafar qiz sportning bir necha turi, jumladan, badiiy gimnastika bilan shug'ullanmoqda.

Navoiy shahar hokimi Bahodir JO'RAYEV O'ZA muxbiri bilan suhbatda yoshlar o'rtasida sportni yanada ommalashtirish, qizlarni sportga keng jalb qilish, nafasat va go'zallik timsoli - badiiy gimnastikani rivojlantirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar hamda istiqboldagi rejalar haqida quyidagilarni so'zlab berdi:

«Prezidentimiz rahnamoligida bolalar sportini rivojlantirishga, yosh avlodning salomatligi, jismonan va ma'nan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu nafaqat ta'lim-tarbiya tizimi xodimlari zimmasiga, balki barchamizga katta mas'uliyat yuklaydi.

Navoiy shahrida mutaxassislardan iborat maxsus komissiya tuzilib, yoshlar o'rtasida sportning ommaviyligini oshirish, qizlar shug'ullanadigan sport turlarini, ayniqsa, badiiy gimnastikani yanada takomillashtirish maqsadida barcha sport maktablari, klublar va sport majmualarida yaratilgan sharoitlar o'rganib chiqildi. Shahrimizdagi olitva kasb-hunar kolleji, ikkita akademik litseyi, 19 ta maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasasi, uchta maktab va ikkita bolalar va

uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Qizlarning mahoratini oshirishda ularga Zamira Haqberdiyeva, Umida Mansurova kabi tajribali murabbiyalar har tomonlama ko'maklashmoqda. Badiiy gimnastikachi qizlarimizdan O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Zarina Qurbonova, Feruza Mo'minova, opasingil Nodira va Umida Mansurova Uchquduq shahrida o'tkazilgan «Qizilqum gullari» musobaqasida oltin va kumush medallarini qo'lga kiritishdi.

Muxlislar e'tirofiga sazovor bo'lib kelayotgan mohir gimnastikachilarimiz safida Aliya Balguzova, Sevinch Ochilova, Sahiba Naimova, Sabina Ziyodinova ham bor. Bu qizlarimiz «Umid nihollari», «Barkamol avlod» sport o'yinlarida kashf etilgan iqtidor sohibalaridir.

Shu yilning mart oyida badiiy gimnastika bo'yicha Buxoro viloyati ochiq birinchiligida ikki nafar gimnastikachimiz, Namangan shahrida o'tgan III «Oltin vodiy» an'anaviy turnirida uch vakilimiz faxrli o'rinlarni egalladi. Yaqinda shahrimizda «Barkamol avlod yili»ga bag'ishlab 1995-2000-yillarda tug'ilgan qizlar o'rtasida badiiy gimnastika bo'yicha



yo'lida madad bo'lib, ularning kamolot pillapoyalaridan dadil odimlashlarini har tomonlama rag'batlantirishdan iborat.


## DO'STLARIMDAN ORTDA QOLMAYMAN




Chempion bo'lishni kim ham orzu qilmaydi deysiz? Dilnoza Qahhorova va Shohruh Murodov ham 3-bolalar va o'smirlar sport maktabining o'quvchilari. Dilnoza ikki karra O'zbekiston chempioni va kumush medal sohibasi bo'ldi. Do'stlaridan ortda qolmaslik uning shiori. Maktabdoshi Shohruh esa

sovrindorlar qatorida, xalqaro turnirlar g'olibi bo'lishdek baxtga erishdi. Yunon-rum kurashida tajribasini kundan-kun oshirib bormoqda.

Maqsad sari intilayotgan, barkamol avlodning vakillarining orzusi Olimpiada tomon yo'l olmoqdir! Yo'lingiz oydin bo'lsin, aziz yoshlar!



## G'OLIBLAR SAFIDA YURSIN!



Navbatdagi Gran-pri bellashuvi ko'hna va navqiron Samarqandda o'tkazildi. Unda bu safar sportchilar qatnashib, o'zaro kuch sinashishdi. Viloyatdagi 3-bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchisi Sunnat Yo'ldoshev ushbu musobaqaning g'olibi bo'ldi. Ko'p karra O'zbekiston chempioni, Osiyo birinchiligi sovrindori, erkin kurash bo'yicha sport ustasi Sunnatjon Turkiyada o'tgan bahsini ham muvaffaqiyatli yakunladi.

Sportning shunday ikki qoidasi bor: yutqazadi, yutadi. Niyatimiz. Sunnatjon hamisha g'oliblar safida yursin!

## SPORTCHI QIZ DURDONA

Durdona Zokirova Karmana tumani «Qahramon» mahallasida yashaydi. Badiiy gimnastika bilan shug'ullanadi. Sportga mehri baland bu qizaloqning



yutuqlari talaygina. «Sog'lom avlod» jamg'armasi, «Umid nihollari» viloyat birinchiligida qo'lga kiritgan sovrinli o'rinlarni egallagan bo'lsa, joriy yilda 6-bolalar va o'smirlar sport maktabida o'tkazilgan «Barkamol avlod yili» munosabati bilan ochiq birinchilikda ham g'oliblik unga quchoq ochdi. «Umid nihollari» sport musobaqasining tuman bosqichida birinchilikni qo'lga kiritib, viloyat bosqichida 2-o'rin sohibasiga aylandi.

Sabxon Bahromova Durdona kabi o'nlab gimnastikachi qizaloqlarga ustoz. Mashg'ulotlar samarasi o'laroq, murabbiyning ko'pgina shogirdlari tuman, viloyat, respublika bosqichlarida munosib o'rinlarni egallab kelmoqdalar.

Sport olamiga dadil qadamlar bilan kirib kelayotgan Durdonadan ustozlarining umidi katta.

## SHAHNOZANING SHAXDAM QADAMI



Odatda yosh sportchilar katta musobaqalarda tajribalarining yetishmasligi bois, ko'pincha mag'lubiyatga uchraydilar. Shahnoza ham bundan mustasno emas. Axir mahorat sekin-asta shakllanib, sayqal topadi-da! Viloyatdagi barcha BO'SM (bolalar va o'smirlar sport maktabi)da ta'lim-tarbiya olayotgan bo'lajak chempionlar bugun O'zbekiston birinchiligida sinovdan o'tmoqdalar. Yaqinda Shahnoza Umrzoqova xuddi shunday musobaqaning kumush medalini qo'lga kiritdi. Xalqaro turnirlar g'olibi va sovrindori, sport ustasi Shahnoza endilikda sportning erkin kurash turi bo'yicha tengsiz chempiondir. U hozirda viloyatdagi 3-BO'SMda tahsilni davom ettirmoqda.

Sportchilardagi o'ziga bo'lgan ishonch g'alaba omilidir. Shahnozada esa bu fazilatlar bolalikdan shakllangan.



Ertani nurafshon qilmoqlik uchun,  
O'qib, izlanadi barkamol avlod**BARKAMOL  
AVLOD**

Ona diyoringimning o'g'il-qizlarin  
Kamolini ko'rib, dillar bo'lar shod.  
Bilimdon va zukko, nurlu yuzlari,  
Yurtini yuksaltirar barkamol avlod.  
Buyuk ajdodlarga munosib bo'lib,  
Ularning nomini mudom etar yod.  
Ertani nurafshon qilmoqlik uchun,  
O'qib, izlanadi barkamol avlod.  
Istiqloq tufayli yurtim kundandun,  
Chiroy ochib borar, ozod va obod.  
Yoshlikning har onin g'animat bilib,  
Intilib yashaydi barkamol avlod.

Iroda JUMANAZAROVA,  
Konimex tumanidagi  
2-umumta'lim maktabining  
9-«V» sinf o'quvchisi

**NUROTAM**

Bir gulingman bog'ingda,  
Bog'bonim onam, otam.  
Qirq jonim senga fido,  
Bobo makon Nurotam!  
Alpomish o'g'lonlardan,  
Qolishmaydi qizlar ham.  
Dunyo turguncha turgin,  
Ota makon Nurotam!

Xumora SADRIDDINOVA,  
Nurota tumanidagi  
55-umumta'lim maktabining  
8-«B» sinf o'quvchisi

**VATAN DEGANI...**

Erta tong onalar yopganida non,  
Bolalar oshiqsa uni yegani.  
Bobolar qo'llari duoda bo'lsa,  
Asli shu emasmi, Vatan degani?!  
Baland xirmonlari tog'lardan oshsa,  
Jo'shqin irmoqlari qirg'oqdan toshsa,  
Momolar nabira to'yiga shosha,  
Axir shu emasmi, Vatan degani?!  
Oy yuzli qizlari ibo-la yursa,  
Chegarada o'g'lonlar mardona tursa,  
Yosh avlod yurtining ertasin qursa,  
Axir shu emasmi, Vatan degani?!

G. ASHIRBEKOVA,  
Konimex tumanidagi 7-maktabning  
8-«B» sinf o'quvchisi

Navoiyning ko'p millatli aholisi bir oiladek  
ahil yashashadi. Ayniqsa, bola jonlari juda  
inoq: bitga o'qishadi, hunat o'rganishadi, sport  
bilan shug'ullanishadi, ijod qilishadi,  
o'ynashadi...

Quyida tuzli millat vakillari bo'lgan  
tengdoshlaringizning ertak va she'rlarini  
havola qilyapmiz. Ijod namunalaringizni o'z ona  
tilida o'qishning gashtiga nima yetsin?!

**СКАЗКА О  
ХРАБРОМ АЛЕКСЕ**

Жили-были в одном  
дворе котятa. Они были  
пушистыми и веселыми.  
Каждый день хозяйка выносила  
котятaм молоко.

В этом же дворе жил ёжик. Он был  
колючим и сердитым, и тоже очень любил  
молоко. Он пугал котят и пил их молоко.  
Бедные котятa оставались голодными.

Однажды собачка по кличке Алекс заметил  
всё это. Он начал лаять и прогнал злого ёжика.  
Котятa напились молока и ещё угостили Алекса. А ёжик  
больше к ним не подходил, он боялся  
храброго Алекса.



Ситора ХИКМАТОВА,  
Konimex туманидаги 2-мактабнинг  
2-«А» синф ўқувчиси

**ВЕСНА**

К нам весна шагает,  
Быстрыми шагами.  
Снег везде растаял,  
Лужи под ногами.  
Птички прилетели,  
Солнце высоко.  
Травка зеленеет,  
На душе светло!

**BUVIMNING  
GILAMI**

Buvimning gilami naqshinkor,  
ko'rkam,  
Ipaklari nafis, yoqimli, mayin.  
Unga mehrim ortib borar tobora,  
Qancha mehnat ketganin bilganim  
sayin.

Nilufar ALIQULOVA,  
Konimex tumanidagi 2-umumta'lim  
maktabining 2-«V» sinf o'quvchisi

**SO'NGGI  
QO'NG'IROQ**

Xayrlashuv fursati yetdi,  
Do'stlar diydoriga to'yaylik.  
Bizlarni tark etayotgan,  
Bolalikka qo'l siltab qo'yaylik.

Bor mehrini bizlarga bergan,  
Xayr ustoz, qadrdon maktab!  
Qayda bo'lsak unutmay aslo,  
Yurajakmiz sizlarni maqtab.

Umida RUSTAMOVA,  
Zarafshon shahridagi  
10-umumta'lim  
maktabining 8-sinf o'quvchisi

Mening ismim Anar, ozarbayjon millati farzandiman.  
Uchquduq shahridagi 3-maxsus maktabning 3-«A» sinfida  
a'lo baholarga o'qiyapman. Garchand rus tilida o'qitiladigan  
maktabda saboq olsam-da, «Tong yulduzi» gazetasini maroq  
bilan o'qib boraman. Chunki ona  
tilimdan tashqari o'zbek, rus, ingliz  
tillarini ham bilaman. Kelajakda  
fransuz tilini ham o'rganmoq-  
chiman.

Men rasm chizishni juda yaxshi  
ko'raman, to'garakka qatnab,  
peyzaj, natyurmort, ertaklar  
asosida rasm chizish borasidagi  
mahoratimni oshiryapman. «Za-  
mondosh» madaniyat saroyida  
qo'shiq kuylashdan saboq olyapman.



Chizgan  
rasmlarimni  
«Tong yul-  
duzi» sahifa-  
sida ko'rsam,  
xursand  
bo'lardim.

Anar BAYRAMOV,  
Navoiy viloyati

**ANA**

Du'nyani nurlarg'a bo'legen insan,  
Tu'nlerdi tan'larg'a ulag'an insan,  
Perzentleri baxti jolinda talg'an,  
Ulliliqta ten'siz o'zin sen' ana.

Shashlarin' ag'inda ko'rdim miynetti,  
O'stirdin' ten'siz talantkerlerdi,  
Tawsilmas mehrin'nen na'r alip du'nya,  
A'lemnin' go'zalligi sennen jaraldi.

Sen o'zin' sen' tawsilmas ilhamim da,  
Sen o'zin' sen' jaynap turg'an ko'z nurim da,  
Sen o'zin' sen' hesh so'nbes quyashim da  
Tileklerin mol sag'an, ay aziyz ana.

Men ten'eymen go'zal insang'a,  
Sen meni jarattin' quwanishli adamg'a,  
Sag'an u'lken rahmet, deymen anajan,  
Ha'r dayim saw bolin' aziyz anajan.

Jazira QASIMOVA,  
Konimex tumani

...Nurotamizga kelsangiz, uning ko'rk-u jamoliga maftun bo'lishingiz tayin



Shu kunlarda qadimiy va navqiton Nurotamizga kelsangiz, uning ko'rk-u jamoliga maftun bo'lishingiz tayin. Ayniqsa, «Chashma» majmuasidagi bunyodkorlik ishlari hayratingizni oshiradi. Biz shunday ajib go'shada kamol topayotganimizdan faxtlanamiz.



Nurota tumanidagi 1-ixtisoslashgan maktab bo'ylab ajoyib bir xushxabat tarqaldi.

Mazkur bilim dargohining 7-«B» sinf o'quvchisi Otamurod Hamdamov «Eng faol kitobxon» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichi g'olibi bo'libdi. Shu kuni maktabda haqiqiy bayram bo'ldi. Maktab direktori Gulnora Murodova bilimdon va zukko Otamurodni g'oliblik bilan qutlab, esdalik sovg'alari topshirdi. Tadbirida

ishtirok etgan viloyat kengashi deputati Aslam Islomov bilimdon o'quvchini barchaga ibrat qilib, o'zining esdalik sovg'asini taqdim etdi.

Quvonarlisi, respublika miqyosidagi nufuzli tanlovda nafaqat maktabi, balki tumani hamda viloyati sharafini munosib himoya qilgan Otamurodga havas qilib, maktab kutubxonasiga a'zo bo'lganlar soni ortib ketdi. Nurxonamizda esa yangi nashrdagi qiziqarli kitoblar juda ko'p.

Zulayho KARIMOVA, maktab kutubxonachisi



Tumanning eng xushmanzara joyida qad rostlagan 18-umumta'lim maktabimiz o'quvchilarining o'qish, san'at, sport, qo'ying-chi, barcha sohalarida qo'lga kiritib kelayotgan ibratli yutuqlarini sinfimiz misolida hikoya qilib bermoqchiman.

Gapni sinf rahbarimiz Izzatoy Uzogovanning «Yilning eng yaxshi o'qituvchisi» tanlovi g'olibasi bo'lgani haqidagi xabar bilan boshlasam. Ustozimiz boshchiligida ikki yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan «Zakovat» klubida bilim va intellektual salohiyatimizni oshirib kelyapmiz. «Zakovat» o'yinlari uchun qiziqarli savollarni esa sevimli nash-

rimiz «Tong yulduzi»dan olamiz.

Sinfirmizda «Haftanoma» burchagi tashkil qilingan bo'lib, uni «+» va «-» bo'limlariga ajratganmiz. Haftaning eng a'lochi, namunali o'quvchisining ismi-sharifini «+» bo'limiga va aksincha, hafta davomida past baholari, qoniqarsiz xulqi bilan sinfni orqaga tortgan o'quvchining ismini esa «-» bo'limiga yozib qo'yamiz. «-» bo'limida nomi chiqqan o'quvchi bir necha kun uyalib, qizarib yuradi va o'ziga tegishli xulosa chiqarib oladi.

Gulchehra ZAYNIDDINOVA, 6-«A» sinf o'quvchisi

NUROTANING BIR QIZIMAN

Salom qadeli «Tong yulduzi» gazetasi xodimlari! Mening ismim Shahzoda, Navoiy viloyatining eng qadimiy, go'zal va obod «Nurota» chashmasi maskan topgan Nurota tumanida istiqomat qilaman.

kimiyo fanlariga juda qiziqaman. Yana she'rilar ham mashq qilaman. Maqola va she'rilarim bilan sinfirmiz devoriy gazetasining yanada mazmunli chiqishiga o'z hissamni qo'shib kelyapman.

Yurtimizda o'qiyman, o'rganaman degan yoshlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ulardan unumli foydalangan holda ko'plab mega tanlovlar, fan olimpiadalarida qatnashib, bilim va iqtidorimizni mustahkamlab boraymiz. Kelgusida ona shahrim Nurotaning yanada gullab-yashnashiga o'z hissamni qo'shishni dilimga tugib qo'ydim.

Shahzoda OBLOQULOVA, Nurota tumanidagi 18-umumta'lim maktabining 8-«V» sinf o'quvchisi

Yaqinda gazetaning viloyatimizga bag'ishlangan maxsus soni tayyorlanayotganini eshitib, behad quvondim. Chunki «Tong yulduzi»ning har bir sonini sinfdoshlarim bilan birgalikda sevim o'qib boramiz.

Maktabdagi o'qishlarim a'lo. Ingliz tili, rus tili, ona tili va adabiyot,



Jumandagi 13-maktabgacha ta'lim muassasasida ko'plab shizindan-shakar bola jonlar ta'biyalanishadi. Mehribon bog'cha opalati kichkintoylarni zerkitirib qo'ymaslik maqsadida deyarli har kuni bizoz tadbir, sport musobaqasi o'tkazishadi.

Sohibqiron bobomiz Amir Temurning 674 yilligiga bag'ishlangan «Temur bobom – jasur bobom» mavzusidagi katta bayram ertaligi ham qiziqarli tarzda o'tdi.

Tadbirida ishtirok etgan XTB ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha bosh mutaxassis I.Boboyev, XTB uslubchisi D.Hasanova hamda ot-onalar kichkintoylarning Amir Temurning bosib o'tgan hayot yo'li, mardligi va jasorati haqidagi hiko-

yalari va rivoyatlarini tinglashdi, sahna ko'rinishlarini maroq bilan tomosha qilishdi. Ertalik yakunida

Assalom bog'cha mudirasi B.Samandarova so'z olib, bolajonlarni bayramga tayyorlashda faollik ko'rsatgan uslubchi N.Hikmatova, tarbiyachilar R.Mansurova, D. Safarova, H.Shomishovaga alohida minnatdorchilik bildirdi.

Bunday tadbirlarning o'tkazilishi bolajonlarning murg'ak qalblarida mardlik, jasurlik kabi fazilatlarining ildiz otishiga xizmat qiladi.

Ayni kunlarda bog'chada yana bir tadbirga qizg'in hozirlik ko'rilyapti. Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari «Xayr bog'cham, assalom maktab!» deya she'rilar yod olishyapti.

Bolajonlar bayramiga siz ham albatta keling, bir olam taassurot olasiz.

G. FAYZIYEVA

«Barkamol avlod yilimizda bizga keng imkoniyatlar eshigi ochildi.

YURAKDA

Jismonan va ma'nan sog'lom bo'lishimiz uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Bo'sh vaqtlarimizni mazmunli o'tkazish va kasbga yo'naltirish maqsadida ko'plab to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu to'garaklardan iqtidorli o'g'il-qizlar yetishib chiqmoqda. Bir so'z bilan aytganda, hukumatimiz biz yoshlarning barkamol inson bo'lishimiz uchun qayg'urmoqda. Shularni o'yalar ekanman, tengdoshlarimga qarata shunday degim keldi:

– Aziz do'stim! Kel, qo'lni qo'lga beraylik. Mana shu yorqin, istiqboli porloq, quyoshi muruvvatli, zamini saxiy, insonlari mehrlil, xariyalarining tilidan duo tushmaydigan xalq uchun halol xizmat qilaylik. Axir bobolarimiz



butun dunyoga donoligi, bilimi, insoniyligi bilan dovruq' taratgan. Har birimizning yuragimizga shoir aytganidek:

Boshing egib ta'zim ayla, shukrona ayt, Seni guldek erkalagan chaman uchun. Osmonlarda yurgan bo'lsang tuproqqa qayt, Aytgil do'stim, nima qildik Vatani uchun?!

degan savol tinchlik bermasin! Yulduz MAJIDOVA, Navoiy viloyati, Uchquduq shahridagi 7-maktabning 6-«A» iqtidorli sinf o'quvchisi

Shaklda belgilangan  
xonadan soat mili

yo'nalishida raqam atrofiga:

1. Viloyatda joylashgan vodi.
2. Tumanlardan biri.
3. Qiziltepa tumanida tavallud topgan O'zbekiston xalq shoirasi, «Ko'zimning oq-u qorasi» she'riy guldastasi muallifi.
4. Viloyatning shimoli g'arbida joylashgan, qorako'chilik sohasi rivojlangan tuman.
5. Navoiy shahri tasarrufidagi shaharcha.
6. Muruntov oltin koni ishga tushirilishi munosabati bilan barpo etilgan shahar.
7. Bepoyon qumlik cho'l hududi.
8. Chegaradosh viloyat.
9. Ahmad Donish merosidan «Navodir alvaqoye» asaridan lavhalar tarjimasini muallifi, faylasuf olim.
10. Marmar koni.
11. Viloyatning janubi sharqidagi tuman.
12. Viloyatdagi kondan qazib olinadigan o'tga chidamli noyob metall.
13. Respublikamiz bo'yicha viloyatda eng ko'p yetishtiriladigan mo'yna mahsuloti.
14. XI asrda bunyod etilgan Mirsaid Bahrom maqbarasi joylashgan ko'hn shahar.
15. Markaziy Qizilqumdagidagi oltin ma'dani qazib olish koni.
16. Navbahor tumanida tavallud topgan yozuvchi, «Yangi oy chiqqan kecha» romani muallifi.

## «SHOIR NOMINI OLGAN DIYOR» AYLANMA KROSSVORDI



## MUAMMONOMA

Avvalo quyida ta'riflari bayon etilib, raqamlarda ifodalangan kalit so'zlarni toping:

1. Viloyatning Xatirchi tumanidagi shaharcha – 3, 6, 2, 10, 6, 4.
2. O'zbek xalq kuyi – 2, 6, 16, 7.
3. Yer yuzi va undagi borliq, olam – 8, 6, 11, 7, 2.
4. Badiiy to'qimachilik buyumi, xona jihozi – 10, 9, 3, 6, 5.
5. Zafar, muvaffaqiyat – 14, 6, 3, 6, 12, 6.
6. Kuzpishar tog' mevasi – 1, 13, 3, 6, 2, 6.
7. Gapning asosiy bo'laklaridan biri – 15, 10, 6.
8. Suv yo'li – 17, 7, 18.

Endi kalit so'zlari javoblari asosida shakl atrofidagi raqamlarda yashiringan muammonomani hal etib, ulug' o'zbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiy yozib qoldirgan ikki misra hikmatni bilib oling.

Foziljon ORIPOV tuzdi

## QALBLARGA JO BO'LGAN KITOB



Navoiylik tengdoshlaringizga bag'ishlangan maxsus sonni nashrga tayyorlash arafasida quvonchli xushxabar keldi.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» va «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» ma'ruzalarini o'rta maxsus kasbhunar ta'limi tizimida o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua nashrdan chiqdi. O'quv-uslubiy majmua 3 qismdan iborat bo'lib, o'quv dasturi, uslubiy hamda o'quv qo'llanmani tashkil etadi. Yuqorida qayd etilgan ma'ruza-

larni o'rganish bo'yicha maxsus kurs dasturi o'rta maxsus kasbhunar ta'limi tizimida o'qitish uchun ishlab chiqildi. Dastur tizimdagi akademik litsey va kasbhunar kollejlari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Majmuaning uchinchi qismini tashkil etuvchi o'quv qo'llanmada Prezident tomonidan ma'ruzalarda keng qaratilgan kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonlari, 2010-yil uchun belgilangan ustuvor yo'nalishlar, «Barkamol avlod yili» Davlat dasturida belgilangan asosiy vazifalar borasida talaba-o'quvchilarga chuqur bilim berish maqsadida asosiy masalalar atroflicha yoritib berilgan.

– Ushbu kitobda bayon etilgan fikr-mulohazalar, ilgari

surilgan muammolar va ularni hal etish yo'llari, o'ylaymanki, biz O'zbekiston yoshlari, uchun nafaqat muhim manbaa, balki yurtimizning ertangi rivoji yo'lida tuzilgan dasturulamadir, – deydi Toshkent Bank kolleji 2-bosqich o'quvchisi Zulayho Ergasheva. – Yana shuni ham alohida ta'kidlash joizki, kitobda aks etgan chizmalar, rasm va jadvallar, tayanch so'z hamda iboralar lug'ati, o'quvchini o'ziga rom etmay qo'ymaydi.

Biz o'qituvchilar o'rta maxsus ta'lim tizimi, ya'ni kasbhunar kollejlarda kasb mahoratini o'rganib, tarbiya topayotgan, akademik litseylarda o'z bilimlarini yanada chuqurlashtirib ta'lim olayotgan yoshlarni o'qitish va oliy ta'lim muassasalariga tayyorlashda ushbu kitobning ahamiyati salmoqli ekanligidan xursandmiz.

Surayyo RASULOVA,  
Toshkent Bank kolleji  
umumiqtisod kafedrasini  
o'qituvchisi

## TAHRIRIYATDAN:

Yurgan daryo, o'tirgan bo'yra, deganlaricha bor ekan. Kecha Samarqandda, bugun Navoiyda, ertaga Qoraqalpog'istonda... O'n marta eshitgandan, bir bora ko'rgan afzal-da, axir.

Xullas, Navoiy bo'yrlab qilgan sayohatimiz ham nihoyasiga yetdi. Viloyatdagi maktablarda, kollej va litseylarda, bog'cha va kutubxonalarda bo'lib, o'quvchilarning kitobxon, bilimga chanqoq ekanliklariga guvoh bo'ldik.

Shunda bizni bir fikr o'ylanirib qo'ydi: navoiylik o'g'il-qizlarning respublikadagi tengdoshlariga ibrat qilsa arzigulik shuncha ishlari bor ekan-u, bizga maktub ham yozmay, kamtarlik qilib yuraverishar ekan-da.

Ushbu sovg'amiz ularga manzur bo'lib, do'stlik aloqalarimiz yanada mustahkamlanadi, muxlislarimiz orasida navoiyliklari soni ham yanada ortadi,

degan umiddamiz.

Fursatdan foydalanib, mazkur sonni tayyorlashda bizga yaqindan ko'mak bergan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga, Navoiy viloyati Xalq ta'limi Boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Azim aka JUMAYEVga hamda Boshqarmaning axborot xizmati bo'limi boshlig'i O'g'iloy TIRKASHEVAgaga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Maxsus sonni nashrga tayyorlaganlar:

To'lqin Hayitov, Feruza Jalilova, Feruza Adilova, Yusuf Abdullayev, Ma'mura Madrahimova, Gulyuz Orifonova, Nargiza Abdullayeva, Olovuddin Oripov.



## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Navbatchilar:  
Gulyuz ORIFJONOVA,  
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

## TAHRIR HAY'ATI:

Avaz MARAHIMOV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

## Manzilibiz:

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

Haftaning dushanba kuni chiqadi.

Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092

Adadi - 71335  
Buyurtma N: J 9455